

THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING THE WRITTEN SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Ramazonova Munisa Hoshim qizi

1st-year Master's Student Bukhara State Pedagogical Institute

Tel: +998904030367 E-mail: munisahoshimovna@gmail.com

Annotation. This article discusses interactive methods used to develop the written language of primary school students.

Keywords: primary education, mother tongue education, written speech, interactive methods, students' speech competence, writing literacy, pedagogical technologies, active participation in the educational process, communicative approach, students' independent thinking.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI O'STIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI

Ramazonova Munisa Hoshim qizi

Buxoro davlat pedagogika institute 1-bosqich magistranti

+998904030367 munisahoshimovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar haqida so'z yuritilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются интерактивные методы развития письменной речи учащихся начальной школы.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili ta'limi, yozma nutq, interaktiv metodlar, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, yozma savodxonlik, pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonida faollik, kommunikativ yondashuv, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi.

Kirish

Bugungi kunda mamalakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqini

baravar rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq o'quvchining tafakkur darajasi, til boyligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lib, u nafaqat ona tili darslarida, balki barcha fanlarni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda yozma nutqni rivojlantirish masalasi pedagogik jihatdan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.

Yozma nutq — bu o'quvchining tafakkuri, nutq madaniyati, so'z boyligi va mantiqiy fikrlash darajasini namoyon etuvchi eng muhim vositadir. Boshlang'ich ta'limda yozma nutqni rivojlantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida o'z fikrini erkin, aniq va mantiqiy ifoda etishga asos bo'ladi. Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalari orqali bu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda bir nechta yondashuvlar mavjud. Quyida ularning asosiylarini ko'rishimiz mumkin:

1. Kompetensiyaviy yondashuv

Yozma nutq o'rgatishda faqat grammatik bilimlarni emas, balki real hayotiy holatlar asosida o'z fikrini bayon qilish, tahlil qilish va izohlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim. Bu yondashuvda o'quvchi "biluvchi" emas, balki "yaratuvchi" sifatida qaraladi.

2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

Har bir o'quvchining individual rivojlanish darajasi, dunyoqarashi va qiziqishlariga qarab yozma topshiriqlarni moslashtirish, o'quvchini rag'batlantiruvchi, motivatsion muhit yaratish muhim hisoblanadi.

Bolalar nutqiy faoliyatining rivojlanishida leksik o'yinlarning ahamiyati kattadir. Chunki bunday o'yinlar bola nutqining o'sishi, fikrlash qobiliyatining rivojlanishi, bilim saviyasining kengayishi va xotirasining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda metodlardan foydalanish

muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda interaktiv metodlarda ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Yozma nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi usullar va metodlar sifatida quyidagi metodlarni aytishimiz mumkin:

1. "Tasvir asosida hikoya tuzish" metodi.

O'quvchilarga rasm yoki surat asosida hikoya tuzish topshirig'i beriladi. Bu metod fantaziya va tafakkurni kuchaytiradi. Ushbu metodni avvalo o'qituvchi boshlab bersa, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli tuyuladi.

Afzalliklari:

So'z boyligini oshiradi;

Mantiqiy bog'liqlikni rivojlantiradi;

Nutqni ifodali qilishga o'rgatadi.

2. "Yarimta matnni to'ldirish" usuli.

O'quvchilarga boshlanishi yoki o'rta yozilgan hikoya berilib, davom ettirish so'raladi.

Afzalliklari:

Fikrni davom ettirish malakasi shakllanadi;

O'quvchining mustaqil yozuv ko'nikmalari kuchayadi;

Mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatadi.

3. "5 ta gap bilan hikoya yoz" texnikasi.

O'quvchidan faqat 5 ta gap yordamida aniq voqeani hikoya qilish so'raladi.

Afzalliklari:

Qisqa, lo'nda fikrlashga o'rgatadi;

Mantiqiy tuzilishga ahamiyat berishni talab qiladi;

Muhim fikrlarni tanlay olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

4. "Qahramonga maktub yoz" usuli

O'qilgan ertak yoki hikoyadagi qahramonga xat yozish topshiriladi.

Afzalliklari:

Empatiya va obraz bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

Fikrlash va yozish jarayoni chuqurlashadi.

5. "O'zgaruvchan yakun" metodi.

Berilgan matnning yakunini o'quvchi o'zicha yozadi. Bu metod tanqidiy fikrlashni faollashtiradi.

Afzalliklari:

Muqobil fikrlash rivojlanadi;

O'quvchi mustaqil qaror chiqarishga o'rganadi;

Matn mazmunini chuqur tushunadi.

Yozma nutqni rivojlantirishda ona tili bilan bir qatorda atrof-muhit, tasviriy san'at, texnologiya fanlari bilan integratsion darslar samarali bo'ladi. Masalan, "Bahor fasli" mavzusida rasm chizish va shu asosda hikoya tuzish topshirig'i berilsa, o'quvchilarning ham ijodiy, ham nutqiy ko'nikmalari yanada rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yozma nutqni rivojlantirish — bu faqat grammatikani o'rganish emas, balki bolada mustaqil fikrlash, tahlil qilish, his-tuyg'ularini ifodalash, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faol bo'lishga yo'naltirilgan keng qamrovli jarayondir. Boshlang'ich sinfda bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchi-pedagoglar zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda turli metod va usullardan samarali foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xtayeva F.Sh. Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvda pedagogning raqamli kompetentlikning ahamiyati. ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №7).

2. Bakiyeva H., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Xolboyeva G.. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.
3. Olloqova O‘. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6-son (2021-yil, dekabr).
4. Parpiyev O. Ona tili darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarning yozma nutq savodxonligini oshirish. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2024) / ISSN 2181-1415.
5. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018